



0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATION  
RIVOLANISH VAZIRLIGI



0'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAYSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

ИЖТИМОЙ СОХАНИ  
МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ КОНТЕКСТИДА  
ПЕДАГОГИКТА ЪАЛIM ТАРАККИЁТИ:  
МУАММО ВА ИСТИҚБОЛЛАР  
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

# МАТЕРИАЛЛАРИ



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ**

**“ИЖТИМОИЙ СОҲАНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ  
КОНТЕКСТИДА ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ  
ТАРАҚҚИЁТИ: МУАММО ВА ИСТИҚБОЛЛАР”**

**Республика илмий-амалий анжуман**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил 28 май**

**БУХОРО**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартағи 78-фармойиши асосида 2021 йил 28 май куни Бухоро давлат университетида “**Ижтимоий соҳани модернизациялаш контекстида педагогик таълим тараққиёти: муаммо ва истиқболлар**” мавзусида ўтказилмоқда.

**Анжуманинг мақсади** - мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини янги босқичга кўтариш, педагог кадрлар тайёрлаш сифатини илфор халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш ва олий педагогик таълим сифатини ошириш, педагогик таълим соҳасида илфор хорижий тажрибани кенг жорий этиш, педагогик таълим инфратузилмасини яхшилаш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш ҳамда Республикада ушбу соҳада эришилган илмий натижаларни амалиётга татбик қилиш ҳисобланади.

**Тақризчилар:**

**М.Ҳ.Махмудов**, педагогика фанлари доктори, профессор  
**М.Қуронов**, педагогика фанлари доктори, профессор

**Таҳрир ҳайъати:**

Ш.Ш.Олимов, Б.Р.Адизов, Б.С.Сафаралиев, Г.Я.Гревцева,  
И.Е.Емельянова

Мақолаларни тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Педагогика кафедраси доценти

**Қ.Ф.Абдуллаев**

xor jamoasi sanaladi. Bu jamoalarning xor rahbarlari va dirijori esa bevosita musiqa o'qituvchisining o'zidir.

Xor rahbarining(dirijorning) kuylovchi xor jamoasi bilan o'zaro muloqotida (xor asarlarini o'rganish, kuylash, vokal-xor mashqlari jarayonida) uning dirijorlik boshqaruvi asosiy vosita bo'lib, xor ijrosini g'oyaviy-badiiy mazmunli chiqishi, muallif fikrlarini badiiy bo'yoqlarda aks ettirishda dirijorning aniq ko'rsatmalari va obrazli xarakterlari yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tajribali dirijor – pedagoglarning va professional xor dirijorlarining pedagogik va ijrochilik ish faoliyatini bevosita kuzatish, shuningdek, dirijorlik san'atiga oid o'quv, metodik adabiyotlarni o'rganish, o'z kasbiy nuqtai nazaridan dirijorlik faniga ijodiy munosabat, mashg'ulotlar jarayonida o'z-o'zini nazarat va tahlil qilib borish bo'lg'usi mutaxassislarga katta foydali keltiradi.

Pedagogika olyi o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lif" yo'nalihsining o'quv rejasida ushbu fanni to'rt yil davomida o'qitilishi ko'zda tutilgan. Dirijorlik fanining namunaviy dasturida ushbu fanning o'qitilishining maqsad va vazifalari quyidagicha ifoda etilgan:

- Dirijorlik kursining asosiy maqsadi bo'lg'usi musiqa oqituvchilari – talabalarga dirijorlik sirlarini o'rgatish jarayonida ularni jamoaviy ijrochilikni boshqarishga tayyorlash bilan birga, ularga ma'nnaviy, mafkuraviy tarbiya berish, g'oyaviy, badiiy-estetik tarbiyalash, ularning badiiy ijrochilik mahoratini (xor, vokal ijrochiligi bo'yicha) o'stirish asosiy va eng zarur dirijorlik o'quvi va ko'nikmalarini shakllantirish, o'zbek, qardosh, chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan eng yaxshi xor asarlari, shuningdek xor ijrosiga moslashtirilgan, qayta ishlangan xalq qo'shiqlari bilan yaqindan tanishtirib borish, turli janr, xarakter, mavzu va turli tarkib, tipdagi xorlar uchun mo'ljallangan asarlarni professional darajada tahlil qila olish va ularga dirijorlik qila olish malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Dirijorlik kursi fan sifatida o'quv mashg'ulotlari jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tizimli o'quv ishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi:

- Talabalarda milliy musiqamizga hurmat, muhabbat, uni organishga qiziqishni, shu orqali ularga milliy ong, milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish, ularni Davlat Ta'lif Standarti talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislar qilib yetishtirish;
- Talabalarni bo'lg'usi musiqa o'qituvchi, xor rahbari va dirijori sifatida badiiy didini rivojlantirish, xor asarlarining badiiy qimmatini va ularning ijrosini boshqarish, baholay olishga o'rgatish;
- Dirijorlikning eng asosiy ko'rsatmalari, ishoralari, harakatlardan turlari, dirijorlik texnikasining sirlarini yoritish, asarlarga dirijorlik (mustaqil) qila olish malakalarini hosil qilsih;
- Musiqa pedagogikasining tizimlilik, izchillik, ilmiylik, davomiylik, oddiydan murakkabga o'tish, individual yondashish, guruh va jamoa bilan muloqot o'rnatda olish kabi didaktik tamoyillarga amal qilishni o'rgatish;
- Badiiy ijodni mukammal variantini oldindan eshitma bilish va unga erishish ustida rejali ish olib bora olishga o'rgatish;

Dirijorlik sinfidagi mashg'ulotlar tizimida fan bo'yicha talabalar bilimi va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi;

- Dirijorlik sxemalari, harakatlari, ijroni boshqarishning yordamchi unsurlari bo'yicha puxta bilim va malakalarga ega bo'lismi va uni amaliyotda qo'llay olish uchun eng avvalo quyidagi eng zarur jihatlarni yaxshi o'zlashtirish lozim;
- Dirijorlik apparatining to'g'ri qo'yilishi va harakatlarni aniq va tushunarli bo'lishiga erishish;
- Yaxshi rivojlangan qo'shiqchilik qobiliyati va uquvga ega bo'lismi, ashulachilik nafasi, ovoz tayanchini yaxshi his eta olish, "auf takt", "ijroni boshlash", "ijroni davom ettirish", "ijroni tugatish" kabi dirijorlikning bosh elementlarini puxta o'zlashtirishga erishish;
- Dirijorlik harakatlarining ifodali va ta'sirchan bo'lismi, panja va barmoqlarning mayin, egiluvchan (plastik) va nafis harakatlanishiga erishish;
- Turli dinamik belgilari va asar partiturasida uchraydigan belgilarni, ovoz harakatchanligi (lichato, non lichato, stakkato, farleato) va boshqa tepip o'zgarishlarini aniq ko'rsatib bera olish;
- Jo'rsiz (a'kapella) asarlarni va jo'rli asarlarni xor partiylariga bo'lib o'rgata olish va ular ijrosini tahlil qilib, badiiy yetuk ijroga erishish;
- Xorning turlari, maktab xor jamoalari – kichik, o'rta, katta yoshdag'i bolalar xorlari, aralash jor ovozli xor va ularning imkoniyatlarini, xususan, bolalar xorini tashkil qilish yo'llarini, bolalar ovoz diapazonlarini, ularning psixologik, fiziologik xususiyatlarini yaxshi bilgan bo'lismi va shunga ko'ra xor uchun repertuar tanlay bilishi lozim;
- Qo'shiqchilik nafasi, badiiy ijroning ifodaviy vositalari – dixsiya, intonatsiya, registr, tesseluralarni aniq bilishi, asarlarni xor imkoniyatlariga ko'ra transpozitsiya qila olish malakalariga ega bo'lismi lozim;

Dirijorlik fani musiqa nazariyasi va amaliyotiga bog'liq fanlar, chunonchi vokal ijrochiligi (xorda kuylash vokal kuylashga asoslanadi), cholg'u ijrochiligiga (fortepiano), musiqaning nazariy asoslari, musiqa asarlari tahlili, musiqa tarixi, musiqa oqitish metodikasi, xor va xorshunoslik asoslari kabi fanlar bilan uzviy

bog'liqligi tufayli ushbu fanlarga tegishli bilimlar bilan uyg'un holda dirijorlik mashg'ulotlarida talabaning ushbu fanlar bo'yicha bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalariga tayaniladi. O'z navbatida talabaning ta'kidlab o'tilgan fanlar bo'yicha bilimlari amaliy faoliyatda mustahkamlanib, takomillashib borishiga ahamiyat beriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Dirijorlik. Fan dasturi. T.; OvaO'MTV, 2008.
2. Dirijorlik. O'quv-uslubiy majmua. SamDU, 2011.
3. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1987.
4. N.Sharafiyeva. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1988.
5. Kushayev A. Estetik tarbiya asoslari. T.; O'qituvchi. 1987.
6. G.Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU. 2000.
7. D.Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.; 2005.

### **ABDULLA AVLONIYNING IJODIY FAOLIYATI**

**Z.Z. Shernazarov**

Buxoro davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati, ta'lif soxasiga qo'shgan beqiyos hissasi, uning maktablar uchun yaratgan darsliklari haqida fikr yuritilgan. Abdulla Avloniy o'zbek xalqning san'ati va adabiyoti maorif, hamda milliy madaniyatini, xalq ta'lifi ishlarini yo'lda qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagog hamdir.

**Kalit so'zlar:** jadid, maktab, darslik, adabiyot, ma'rifat, talim tarbiya, jurnal, darslik, "Turkiy guliston yoxud axloq".

Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug' kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo'ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari ko'z-ko'z qilinaveradi. Ana shunday ulug' zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, shoir Abdulla Avloniyidir. Prezidentimiz qachon ta'lif-tarbiya haqida gapiradigan bo'lsa, albatta, Abdulla Avloniy haqida to'xtaladi. Uning ibratomuz so'zi va ishini misol qilib aytadi: "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman," – deb, bu muallimning bosib o'tgan hayot yo'lini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatadi.

Buyuk ma'rifatparvar shoir, davlat arbobi, pedagog Abdulla Avloniy ilmiy-me'rosini o'rganish va uning pedagogik faoliyatidan unumli foydalanish bugungi kunda o'zining yuksak salohiyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy qisqa muddatli hayot faoliyati davomida xalq farovonligi, yoshlarning ilmlni bo'lishi, dunyoga tanilishi kabi salmoqli faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi. Buning uchun maktablar, yangi o'qitish usullari va darsliklar yaratdi, qator gazeta va jurnallar chop etib, unda talim tarbiya haqidagi ilg'or fikrlarini xalqqa yetkazishga harakat qildi, teatr trupalarida ijro va asarlari bilan qatnashib ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng ommaga ma'lum qildi.

Abdulla Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig'i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o'stirish dunyo bilimlaridan xabardor qilish yo'lida yangi usuli savtiya maktablari, ochib ularda bolalar bilim saviyasini shakillantirish maqsadida darslik va qo'llanmalar ham yarattdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval» (1911), «Muallimi soniy» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1917), «Maktab guliston» (1915) va boshqa asarlari o'zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o'rinn egallaydi.

Mutafakkir maktada «axloq» darslarini tashkil qilishni o'z zimmasiga olgan holda, 1913 yilda «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli ta'lif – tarbiya masalalarini chuqur bayon qiluvchi asar yaratadi. Uning bu asarida xulqiga qarab kishilarning ikkiga bo'linishlari («yaxshi xulq» va «yomon xulq»), tarbiya turlari, tarbiyani to'g'ri tashkil etish va boshqa qimmatbaho fikrlar berilgan. Yani bolaga yoshligidan yaxshi va yomon narsalar haqida malumotlar berilishi kerak deb takidlaydi. Jumladan, Abdulla Avloniy tarbiya sarlavhasi ostida tarbiya turlariga ham alohida to'xtalib, tarbiyani to'rt turga bo'ladi: tarbiyaning zamoni; badan tarbiyasi; fikr tarbiyasi (aqliy tarbiya); axloq tarbiyasi.

Avloniyning yangi usuldagagi maktabi tabiiy sharoiti, jihozlanishi, katta – kichikligi bilan bir – biridan tubdan farq qilsa – da, ularda asosan bir xildagi fanlar o'qitilar, bu maktablarning barchasidagi

SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHART SHAROITLARI.....	177
D.Sattarova. МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМДА ТА'ЛИМ-TARBIYA MASALALARI.....	178
М.О.Иргашева. РОСТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УРОВНЯ МОЛОДЕЖИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКИСТАНА.....	179
Н.В. Погорелова, О.Ю. Денисова. ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПОЗИТИВНОГО ИМИДЖА УЧРЕЖДЕНИЯ КУЛЬТУРЫ.....	180
Ў.Т.Бобоева ФАНЛАРАРО АЛОҚАДОРЛИК АСОСИДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ.....	185
Р.А.Литвак, Ю.Г. Голубкова,О.Е. Кутепова. ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ПРОСТРАНСТВО ВУЗА КАК ФЕНОМЕН СОЦИОКУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ.....	185
Р.А.Литвак, О.А.Аккерман, К.С.Ахметова КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ.....	187
Р.Шомуратов ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМНИ БОШҚАРИШДА АҲБОРОТ ТИЗИМИГА НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК ЁНДАШУВ.....	189
И.Ф.Қаюмов. ХАЛҚ ҚҮШИҚЛАРИНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ.....	191
А.А.Азимов,Ф.Ф.Нуруллаев. МИЛЛИЙ АНЬАНА ВА ҚАДРИЯТЛАР УЙГУНЛИГИДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАРБИЯЛАШ.....	193
Н.В.Погорелова, А.А.Решетникова. СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	196
A.Rajabov «MUSIQA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA DIRIJORLIK FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI YOSHLAR HAYOTIDA MA'NAVIYATNING TUTGAN O'RNI».....	200
Z.Z. Shernazarov ABDULLA AVLONIYNING IJODIY FAOLIYATI.....	202
С.Умарова. МУҲАММАД АВФИЙ БУХОРИЙНИНГ «ЖАВОМЕЙ УЛ-ХИКОЁТ» АСАРИДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯГА ОИД МУЛОҲАЗАЛАР.....	204
M.Ismoilova INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI.....	207
У.Ҳ.Абдуллаева. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШДА АЖДОДЛАР МЕРОСИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	208
Н.Ж.Бобомуродова, З.Ж.Фозилова. ЭКОЛОГИК САВОДХОНЛИК - ЭКОЛОГИК ИНҶИРОЗ КУШАНДАСИ.....	210
G.Saidnazarova. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI.....	211
Б.Т.Ҳамраев БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА.....	213
М.Ш.Хожиева, Ш.И.Хакимова.ТАЛАБАЛАРДА МИЛЛИЙ ИФТИХОР ТУЙҒУСИНИ ШАКЛАНТИРИШДАГИ ЗИДДИЯТЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ.....	216
М.А.Жунайдуллаев. ЁШЛАР ИЖТИМОЙЛАШУВИДА ВАТАНПАРVARЛИК ВА МИЛЛИЙ – СИЁСИЙ МЕНТАЛИТЕТНИНГ АҲАМИЯТИ.....	218
Л.Л.Нуруллоев. ҲАРБИЙ ВАТАНПАРVARЛИК ТАРБИЯСИ – ЁШЛАР ТАРБИЯСИННИГ САМАРАДОРЛИГИ.....	221
S.S.Muxlisova BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA HAMKORLIK STRATEGIYASI.....	223
М.Ходжаева. ПЕДАГОГИК МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА.....	224
Г.И.Сафарова. МАЊАВИЙ-АХЛОҚИЙ БИЛИМ МАЗМУНИ.....	225